

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
BD- 60230400 – 1.10.
“ ” 2024-yil



“TASDIQLAYMAN”
O'quv ishlari bo'yicha prorektor:
R.To'rayev
2024-yil

LEKSIKOLOGIYA VA LEKSIKOGRAFIYA

FANINING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230400 – Kompyuter lingvistikasi

Termiz - 2024

Fan kodi LL11-210	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1/2	ECTS-Kredetlar 5/5=10	
Fan turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4	
Semestr	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
I	Leksikologiya va leksikografiya	60	90	150
II	Leksikologiya va leksikografiya	60	90	150

Fan/modulning mazmuni	
	<p>Talabalarni "Leksikologiya va leksikologiya" fanining predmeti va vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilshunoslikning lug'at sathi bo'yicha bilimlarining kompyuter lingvistikasidagi o'rini bayon etish bilan shug'ullanadi. Tilshunoslik ilmidagi so'zning lug'aviy ma'nosi, uning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari, lug'atshunoslik, elektron lug'atlarni yaratish tamoyillari, kompyuter leksikografiyasi bilan bog'liq masalalar haqida ma'lumot beradi. Fanning maqsadi - tilshunoslikning leksikologiya va leksikografiya bo'limlari, ularning o'rganish obyekti, boshqa sathlar hamda fanlar bilan aloqasi haqida ma'lumot berish, leksik ma'lumotlar bazalari bilan tanishtirish, elektron lug'atlar uchun lingvistik bazani yaratish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi: talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, zamonaviy o'zbek leksikologiyasi va leksikografiyasining asosiy tushunchalarini o'rgatish; talabalarning faol so'z boyligi va frazeologik zaxirasini boyitish, leksika, frazeologiya, leksikografiya bo'limlari, bu sohada erishilgan yutuqlar, til va nutq munosabatlariga oid umumnazariy bilimlarning hozirgi o'zbek tiliga tatbiqi masalalari bilan tanishtirish; talabalarning nazariy va amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishiga erishish.</p>
	<p>I-Mavzu: "Leksikologiya va leksikografiya" fanining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti</p> <p>O'zbek tili leksikologiyasining maqsad va vazifalari, uni o'rganish obyekti, so'z va uning ma'noviy mazmuniihamda leksikologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Leksikologiyaning semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya va leksikografiya sohalari</p>

bilan chambarchas bog'liqligi. Leksik munosabat turlari va uning ma'noviy ko'lami.

2-Mavzu: Leksikologiyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari

Leksikologiyaning tilning lug'at tarkibini tizimli va muntazam tadqiq doirasida tutuvchi soha ekanligi, leksikologiyaning o'rganish predmeti hamda vazifalari, leksikologiyaning turlari, leksikologiyaning tekshirish usullari, leksikologiyaning fan sifatidagi tarixiy rivojlanish bosqichlari

3-Mavzu: Leksikologiyaning tilning boshqa sathlari bilan aloqadorligi.

Tilning leksik sathi, leksik assotsiatsiyaning paradigmatic va sintagmatik turlari, lug'aviy tizimning asoslari. Morfologiya va sintaksis hamda stilistika bilan aloqadorligi.

4-Mavzu: Leksik munosabat turlari

Lug'aviy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabat, leksik munosabatning sintagmatik va paradigmatic, epidigmatik munosabat turlari.

5-Mavzu: Leksemaning tashqi va ichki shakli

Til (lison) o'z-o'zidan antropotsentrikdir. Uning ana shu jihati aynan so'zda zohir bo'ladi. Insonning ichki va tashqi olami, shuningdek, uning zakovatidan tashqaridagi olamlarning mohiyatini o'zida ifoda eta oluvchi so'z

6-Mavzu: Leksemalar orasidagi semantik munosabatlar

So'zning lisoniy belgilari, leksik ma'no turlari, leksik ma'noning tarkibi, so'zning boshqa so'zlar bilan bog'lana olish imkoniyati, leksemaning mazmun va ifoda ko'lami.

7-Mavzu: So'zning leksik va grammatik ma'nosi

So'zning predmetlik belgisi, so'z tilning strukturaviy birligi sifatida, so'zning leksik-grammatik ma'nosi uning real voqelikka, fikriy jarayon va tilning leksik sathiga nisbatan namoyon bo'lishi, leksik-grammatik ma'noning milliy xoslanishi.

8-Mavzu: Leksik ma'no va uning tarkibiy qismlari

Leksik ma'noning tavsifida relyasion, funksional, substansional yondashuv, ma'noning tarkibi, ma'nodagi denotativ, konnotativ, empirik, uslubiy komponentlar.

9-Mavzu: Leksik ma'noning taraqqiyot yo'llari

Leksik ma'no taraqqiyoti, hosila ma'noning vujudga kelish sabablari, ma'noning metafora, metonimiya, sinekdoxa asosida ko'chishi, tilda polisemantik so'zlar.

10-Mavzu: Ma'no ko'chish yo'llari: metafora, metonimiya va sinekdoxa

Fanda metaforalarni o'rganishning tadrijiy bosqichlari, jaho va o'zbek tilshunosligida metaforalar tasnifi, ma'no ko'chishining metonimiya, sinekdoxa turlari. So'zlarning leksik taraqqiyotida ma'no ko'chish, metafora, metonimiya va sinekdoxa va ularning o'zaro munosabati

11-Mavzu: Frazeologiya – tilshunoslik bo'limi

Frazeologizmlar – olam milliy manzarasining lavhalari, fanda frazeologik ta'limotlar tarixi, frazeologik ma'no, frazeologik quilmalarning tasnifi, idiomatika

12-Mavzu: So'zlarning shakl va mazmun munosabatiga ko'ra turlari

So'zlarning shakl va mazmun munosabatiga ko'ra turlari, fanda omonimiya, sinonimiya, antonimiyaning o'rganilishiga doir yondashuvlar, omonimiya va antonimiyaga yondosh hodisalar, enantiosemiya – shakl va mazmun munosabatining o'ziga xos turi sifatida.

13-Mavzu: Til lug'at tarkibidagi birliklarning faollik darajasi

Qo'llanish va umumiste'mol darajasiga ko'ra til lug'at tarkibi birliklari, faol va nofaol lug'at, eskirgan va tarixiy so'zlar, neologizm va okkazionalizm

14-Mavzu: Qo'llanilishi chegaralangan leksika.

Til leksikasining turdosh sohalar bilan o'zaro munosabati. Etimologiya, semasiologiya, onomasiologiya, frazeologiya kabi yondosh va turdosh sohalar bilan uzviy aloqadorligi

15-Mavzu: Onomasiologiyaning o'rganish predmeti

Onomasiologiyaning o'rganish predmeti, onomastikaning taraqqiyoti, nomlarning ma'noviy ko'lami, onomasiologik tadqiqotlar tadriji va turi, onomasiologik birloklar tasnifi.

16-Mavzu: Leksikografiya haqida ma'lumot. O'zbek lug'atchiligi tarixi

Leksikografiya haqida ma'lumot, lug'atchilik tarixi va o'zbek lug'atchiligi masalasining o'rganilishi.

17-Mavzu: XI-XIV asr o'zbek lug'atchiligi

XI asr "Devoni lug'otit turk" ning arab lug'atchiligi an'analari muvofiq tuzilganligi va unda so'zlarning berilish tartibi, fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarning yoritilishi, asosan turkiy til, jumladan, o'zbek tiliga xos so'zlarning qayd etilganligi.

18-Mavzu: XIV-XIX asr o'zbek lug'atchiligi

Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar. "Badoye ul-lug'at" (XVI), "Abushqa" (XVI), "Kelurnoma" (XVII), "Sangloh" (XVIII), "Lug'ati chig'atoy va turkiy usmoniy" (XIX) kabi o'zbekcha-forscha, o'zbekcha-turkcha lug'atlarda so'zlarning joylashish tartibi va tamoyillari. Ularda xalq xo'jaligining turli sohalariga mansub so'z va terminlarning ifodalanishi.

19-Mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning o'rtalarida o'zbek lug'atchiligi

"Ruscha-sartcha" va "Sartcha-ruscha" lug'atlarning yaratilish sabablari. Bir va ikki tilli terminologik, orfografik, izohli, frazeologik, chappa, filologik lug'atlarning yaratilishi. "Ruscha-o'zbekcha paxtachilik terminlari so'zligi" (1933), "Zoologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati" (1938), "O'zbekcha-ruscha lug'at" (1941).

20-Mavzu: Mustaqillik davri o'zbek lug'atchiligi

Istiqloq davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy hayotda yuz bergan tub o'zgarishlarning o'zbek leksikografiyasiga ta'siri. Etimologik, ensiklopedik, imlo, izohli lug'atlar yaratilishi. Izohli lug'atlarda davr talablarining aks etish muammolari. Elektron lug'atlar va ularni yaratish asoslari. Internet lug'atlari, vikipediya. Til korpusi. Milliy va global korpuslar.

21-Mavzu: Lug'at tuzish va so'zlarni joylashtirish tamoyillari. Lug'atshunoslik tarixi.

O'zbek lug'atshunoslik tarixi va uning takomili masalasi hamda lug'at tuzish tamoyillari tahlil etiladi.

22-Mavzu: Lugʻat turlari va tasnifi. Maxsus filologik lugʻatlar

Lugʻat turlari: ensklopedik lugʻatlar, izohli lugʻatlar, tarjima lugʻatlar, elektron lugʻatlar va maxsus filologik lugʻatlar tasnif qilinadi va izohlanadi.

23-Mavzu: Lugʻatlarda leksemalar tartibi

Lugʻat tuzishda amal qilinadigan asosiy tamoyillar hamda lugʻatlarda leksemalarning berilishi, bosh soʻz va illyustrativ misollarning aks elishi anʻanaviy va elektron lugʻatlardagi farqi asoslanadi.

24-Mavzu: Oʻzbek lugʻatchiliginmg shakllanish bosqichlari

Turkiy lugʻatchilik takomili, XI asr eski turkiy til lugʻatchiligi, XV asr eski oʻzbek tili lugʻatchiligi, XX asr zamonaviy oʻzbek lugʻatchiligi hamda istiqloq davri oʻzbek lugʻatchiligining tadrijiy takomili.

25-Mavzu: Kompyuter leksikografiyasi

Kompyuter leksikografiyasining shakllanishi, uning oʻziga xosligi, elektron va chstotali lugʻatlardan farqli va oʻxshash tomonlarini izohlash.

26-Mavzu: Leksikografiyaning boshqa fanlar bilan munosabati

Leksikografiyaning boshqa fanlar bilan munosabati asosan leksikologiya, til tarixi, morfologiya va sintaksis, etimologiya, informatika va dasturlash asoslari fanlari bilan oʻzaro aloqasi izohlanadi.

27-Mavzu: Leksikografiyaning muammolari

Lugʻatshunoslik muammolari, ularni bartaraf etishda amalga oshirilayotgan ishlar hamda lugʻat tuzishdagi anʻanalar va zamonaviylik

28-Mavzu: Tarjima va elektron lugʻatlar tuzish tamoyillari

Ikki tilli va koʻp tilli tarjima lugʻatlarining paydo boʻlishi, ularning takomili hamda koʻp tilli elektron tarjima lugʻatlarini yaratish yoʻllari izohlanadi.

29-Mavzu: Oʻzbek oʻquv lugʻatchiligi takomili

Oʻzbek oʻquv lugʻatchiligi yutuqlari va kamchiliklari, ularning davomiyligi va takomili, oʻquv elektron lugʻatlar tuzish masalalari xususida.

30-Mavzu: Turkiy tillarda lug'atchilik an'analari

Zamonaviy turkiy tillarda lug'atchilikning takomillashuvi, elektron lug'atlarning yaratilishi, yagona turkiy til lug'atini tuzish masalalari haqida

II. Amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qayd etilgan mavzular bo'yicha nazariy va amaliy masalalarni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar ma'ruza mavzulari bo'yicha OLGAN bilim va ko'nikmalarini amaliy tahlil orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo'llanma, internet ma'lumotlari vositasida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislar chop ettirish orqali saviyani oshirish, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot shakli: amaliy mashg'ulot (A)

- A1. Leksikologiyaning turlari va tavsifi.
- A2. Leksemalar orasidagi munosabatlar.
- A3. Omonimlarni tahlil qilish texnologiyasi
- A4. Leksemaning uzual va okkazonal ma'nolari.
- A5. Yangi so'zlar hosil qilishning asosiy yo'llari.
- A6. Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari
- A7. Ma'lum sohaga oid so'zlar va ularning qo'llanilishi
- A8. Sinonimlar. Kvazisinonimlar va matniy sinonimlar.
- A9. Antonimik juftliklar bazasini shakllantirish.
- A10. Frazemalar lingvokulturologik hodisa sifatida
- A11. Frazeologik birliklar lasnifi masalasi
- A12. Frazeologik omonimiya bazasi
- A13. Leksikologik sathda sema va semema tushunchasi
- A14. Onomasiologik tasnif masalalari
- A15. Toponimlar – lingvomadaniy hodisa sifatida
- A16. Lug'atni o'rganish va uning turli jihatlari
- A17. Leksikografiyaning vujudga kelishi
- A18. Amaliy lug'atshunoslik
- A19. Maxsus lug'atlar tavsifi
- A20. Lug'at tuzish tamoyillari
- A21. O'zbek lug'atchilik tarixi
- A22. Tarjima lug'atlar tarixi
- A23. Tarixiy va zamonaviy leksikografiya
- A24. Izoldi lug'atlar turlari

2.

	<p>A25. Izohli lugʻallarda soʻzning semantik tuzilishini aks ettirish A26. Oʻquv lugʻatlari A27. Tarjima lugʻatlari A28. Ideografik lugʻatlar (Tezaurus) A29. Ikki tilli lugʻatlar muammosi A30. Korpus leksikografiyasi</p>
Mustaqil taʼlim (MT)	
	<ol style="list-style-type: none"> 1. Amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish va uy ishlarini bajarish 2. Mavjud adabiyotlar bilan tanishish, maʼlumotlar topish va ularni tartiblash. 3. Berilgan manbalarni tarjima lugʻatlari asosida tarjima qilish. 4. Leksikologiyaning asosiy tushunchalar elektron lugʻatini tuzish (misollar bilan). 5. Leksikografiyaning asosiy tushunchalar elektron lugʻatini tuzish (misollar bilan). 6. Leksikologiya va leksikografiyaga oid berilgan mavzularda esse yozish 7. Tezis tayyorlash koʻnikmasini hosil qilish
<p>3.</p>	<p style="text-align: center;">Mustaqil taʼlimni tashkil etishning shakli va mazmuni</p> <p>“Leksikologiya va leksikografiya” fanini oʻrganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tilshunoslikdagi amaliy masalalarni yechishda koʻnikma hosil qilish uchun mustaqil taʼlim tizimiga asoslanib, kafedra professor-oʻqituvchilari rahbarligida mustaqil ish bajaradilar. Mustaqil taʼlim professor-oʻqituvchining talabalarga avvalda berib qoʻyiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi. Bunda talabalar qoʻshimcha adabiyotlarni oʻrganib, internet saytlaridan foydalangan holda referatlar, kurs ishlari va ilmiy maʼruzalar tayyorlaydilar, amaliy, seminar mashgʻulotlari mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, koʻrgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.</p> <p>Talabaga mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil taʼlimning quyidagi shakllaridan foydalanish tavsiya etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - amaliy mashgʻulotlarga tayyorgarlik koʻrish; - darslik va oʻquv qoʻllanmalar boʻyicha fan boblari va mavzularini oʻrganish; - tarqatma materiallar boʻyicha maʼruzalar qismini oʻzlashtirish; - maxsus adabiyotlar boʻyicha referat va konspektlar tayyorlash;

	<ul style="list-style-type: none"> - talabaniing o‘quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fan bo‘limlari va mavzularini chuqur o‘rganishi; - faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlarida faol qatnashish; - masofaviy ta‘limni tashkil etishda qatnashish.
4.	<p style="text-align: center;">Ta‘lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)</p> <p>“Leksikologiya va leksikografiya” fanini o‘zlashtirish uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedogogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Shuningdek, atroflicha bilim olish maqsadida, talabalarga musqatil ish va mustaqil ta‘lim beriladi. Bu fanning yutuqlarini tilshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa sohalariga tadbiq etish maqsadga muvofiqdir.</p> <p>“Leksikologiya va leksikografiya” fani bo‘yicha magistrant bilimlarning amaldagi va yangi antropotsentrik paradigmasi, leksiologiyaning sinxron va diaxron ko‘lami, so‘zning semantik tabiati, leksikologiya fanining yo‘nalishlari, metaforologiyalashgan til birliklari, tilning paremiologik fondi, tilning frazeologik fondi, lug‘at fondi va lug‘atshunoslik, til lug‘at birliklarining uslubiy xoslanganlik xususiyati, so‘zlarning shakl va ma‘no munosabati, tilning metaforalari va obrazlari, til va madaniyatning o‘zaro ta‘siri, leksikologiyaning tekshirish obyekti: nazariy, tasviriy, sinxron, diaxron, tilning terminlar tizimi haqidagi lingvistik ta‘limotlar haqida bilimlar hosil qiladi</p> <p>Leksikologiya va leksikografiyaning tarixiy rivojlanishini, so‘zning leksik va grammatik ma‘noviy munosabatlarini farqlay olishni, so‘zning o‘z va ko‘chma mazmunini, tilning lug‘at sathining tizim sifatidagi paradigmalarni, leksika va leksikologiya terminlarining uzviy qonuniyatlarini, til lug‘at birliklarining uslubiy xoslanganlik darajasini, so‘zlarning shakl va mazmunga ko‘ra munosabatini, til lug‘aviy birliklarning lingvomadaniy jihatlarini, til lug‘at birliklarining milliy korpusda berilishini, til lug‘aviy birliklarining leksikografik xususiyatlarini, semasiologik, onomasiologik, etimologik, madaniy ma‘nolar shakllanishining milliy o‘ziga xos mexanizmlari va ularni tilda faollashuv vositalarini aniqlash, nutqda madaniy ahamiyatga molik birliklarni topa olish, lingvokulturologik sharhlarga chegaradosh fanlardan ma‘lumotlar kiritish, milliy tilning boyish manbalari va sabablari haqida mushohada yuritish, o‘zlashmalarning milliy til tizimidagi o‘rmini belgilash, o‘zga til lingvomadaniy jamoasidagi qadriyatga molik o‘rinlarni belgilash, tillararo va madaniyatlararo muloqotda milliy til birliklarining ahamiyatdorligini belgilash kabi malaka va ko‘nikmalarni egallaydi.</p>

5.	<p style="text-align: center;">Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</p> <p>ma'ruzalar; kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi. amaliy mashg'ulotlar; interfaol keys-stadilar; guruhlarda ishlash; klaster; taqdimotlarni qilish; individual loyihalar; jamoa va kichik guruh bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p> <p style="text-align: center;">ASOSIY ADABIYOTLAR:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2013. 2. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o'zbek tili (leksikologiya). – Тошкент: Firdavs-shoh, 2021. 3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2006. 4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
	<p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni (https://lex.uz/docs/4561730) 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (https://lex.uz/docs/5058351) 1. Yuldoshev B. O'zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. – Toshkent: 2013. 2. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1995. 3. Mengliyev B., Hamroyeva Sh., Axmedova D. Kompyuter leksikografiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022. 4. Махмараимова Ш. Лингвокультуроология. – Тошкент: Чўлпон НМИУ, 2017. 5. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентриқ тадқиқи (номинатив аспект) / Монография: – Термиз: Сурхон нашр, 2020.

6. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
7. Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1966. - 131 bet.
9. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, Университет, 2006.
10. Shomaqsudov A., Rasulov U., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
11. Минаева Л.В. Лексикология и лексикография английского языка. / Л.В. Минаева –М.: АСТ, 2007. – 222 с.
12. Abjalova M.б Erkinov F. Elektron lug‘at va kiberleksikografiya. // O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/2021.–B. 160-163.

Lug‘atlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi (A.Madvaliyev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.
2. Usmon O., Doniyorov R. Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 1965.
3. Ma‘rufov A. Paronimlar lug‘ati. –Toshkent: O‘qituvchi, 1974.-56 b.
4. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984.–215 b.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 407 b.
6. Mengliyev B. va boshq. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Mengliyev B., Bahridinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
8. Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974.-308 b.
10. O‘zbek tili o‘zlashma so‘zlarining urg‘uli lug‘ati [Matn]: o‘quv-uslubiy lug‘at / M.Qurbonova, M.Abjalova, N.Axmedova, R.To‘laboyeva. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. - 988 b.

Elektron manbalar:

1. <http://en.wikipedia.org>
2. <http://tpl1999.narod.ru/WebTPL2000/KlokovTPL2000.htm>.
3. <http://www.lib.vsu.ru/elib/texts/217.pdf>.
4. <http://www.Nbuv.Cov.ua/portal/Sog-Gum/Is2020/pdf>.
5. <http://www.zivo-net.uz>
<http://www.kutubxona.uz>

Fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

O'quv dastur Termiz davlat universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 30-
08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'zbek filologiyasi fakulteti kengashining 2024-yil 29 - 08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'zbek tilshunosligi kafedrasining 2024-yil 28 - 08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Fan (modul) uchun mas'ullar:

Sh.Turdiqulov – o'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi (PhD).
N.Amonturdiyev – o'zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri (PhD), dots.v.b.

Taqrizchilar:

O.Shukurov – Qarshi davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori,

Sh.Bobomurodova – TISU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.